

ISTIQLOL DAVRI G'AFURG'ULOMSHUNOSLIGINING TARAQQIYOT
TAMOYILLARI**Tozagul Matyoqubova,***Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU**Toshkent, O'zbekiston***ORCID:** <https://orcid.org/0000-0002-3063-9871>**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843735>

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik shoir, mohir nosir va tarjimon G'afur G'ulom ijodiyotining istiqlol yillarida o'rganilishi masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqotchi amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda biografik metod imkoniyatlari doirasida ijodkor psixologik portretini tiklash, badiiy asarlari g'oyaviy o'ziga xosliklarini yuzaga chiqaruvchi omillarni tahlil va tadqiq etishga intilish yuzaga kelganini kuzatadi. Bu davr g'afurg'ulomshunosligida G'afur G'ulom ijodiy merosidagi tagma'noni va yashirin qatlamlarni anglashga e'tibor qaratilganini yoritadi. Ko'pgina adabiyotshunoslarning tadqiqotlari tahlili misolida istiqlol davri g'afurg'ulomshunosligining taraqqiyot tamoyillariga oid xulosalarini ifodalagan.

Kalit so'zlar: Poetik ifoda, gumanistik pafos, tahlil, tadqiq, maqola, risola, monografiya, badiiy obraz, she'r, falsafiylik.

Abstract. This article investigates the study of the creative heritage of the academic poet, skilled prose writer, and translator Gafur Ghulam during the years of independence. The researcher observes that within the framework of the biographical method, recent scholarly works demonstrate an effort to reconstruct the psychological portrait of the author and to analyze the factors revealing the ideological and artistic specificity of his works. The paper highlights that Gafur Ghulam studies in this period have focused on interpreting the subtext and hidden semantic layers of his creative legacy. Based on the analysis of studies by a number of literary scholars, conclusions are drawn regarding the developmental trends of Gafur Ghulam studies in the independence period.

Keywords: poetic expression, humanistic pathos, analysis, research, article, brochure, monograph, artistic image, poem, philosophical depth.

Аннотация. В данной статье исследуется проблема изучения творческого наследия академического поэта, талантливого прозаика и переводчика Гафура Гуляма в годы независимости. Исследователь отмечает, что в проведённых научных исследованиях в рамках возможностей биографического метода наблюдается стремление к воссозданию психологического портрета творца, а также к анализу факторов, раскрывающих идейно-художественную своеобразность его произведений. Освещается, что в гафургуломоведении данного периода особое внимание уделяется постижению подтекстов и скрытых смысловых слоёв творческого наследия Гафура Гуляма. На основе анализа исследований ряда литературоведов сформулированы выводы о тенденциях развития гафургуломоведения периода независимости.

Ключевые слова: поэтическое выражение, гуманистический пафос, анализ, исследование, статья, брошюра, монография, художественный образ, стихотворение, философичность.

Kirish. XX asrning 30-60-yillari yangi o'zbek she'riyatining shakllanishi va taraqqiyotida jadid ziyolilarimizdan keyin, shubhasiz, G'afur G'ulomning boy poetik merosi ham muhim poydevor bo'lib xizmat qilgan. Bizningcha, akademik shoir lirik merosi uch muhim ildiz: muazzam Sharq adabiy-falsafiy merosi; o'z davrining shiddatli ruhi va talabi; milliylikni o'zida aks ettirgani bois ham o'ziga xoslik kasb etadi. U Fitrat va

Cho'lponlar boshlab bergan yangi o'zbek she'riyati o'zining chinakam yalovbardori bo'la oldi. Qolaversa, G'afur G'ulom qoldirgan salmoqli badiiy meros o'zi mansub adabiy jarayonga ham, o'zidan keyingi o'zbek adabiyoti rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ma'lumki, shoir asarlarini tadqiq etish uning hayotlik davri, aniqroq aytganda XX asrning 30-yillardayoq boshlangan edi. Bu an'ana hozirgacha davom etmoqda.

G'afur G'ulom hayoti va ijodi yuzasidan milliy adabiyotshunoslikda mavjud izlanishlar yuzaga kelgan davri nuqtayi nazaridan shartli ravishda quyidagicha tasnif qilib o'rganilishi mumkin:

1. XX asrning 30-90-yillarida yaratilgan adabiyotlar;
2. Istiqlol davrida yuzaga kelgan tadqiqotlar.

Adabiyotlar sharhi. G'.G'ulom hayoti va ijodiy faoliyati XX asrning ikkinchi yarmidan to shukungacha adabiyotshunoslar, ilm va ijod ahli diqqat-markazida bo'lib kelgan. O'zbek adabiyotshunosligida G'.G'ulom ijodiyoti B.Nazarov [6], N.Karimov [3], O.Sharafiddinov [12], B.Sarimsoqov [9], T.Matyoqubova [4] singari adabiyotshunoslar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. T.Matyoqubovning maqola va tadqiqotlarida shoirning badiiy mahorati, she'riyatidagi tuyg'ular tovlanishi muayyan darajada tahlil etilgan [5.40-43]. Ammo shoirning badiiy mahorati muayyan asari bilan bilan bog'liq tarzda mahsus tadqiq etilgan tadqiqotlar unchalik ko'p emas. Biz ushbu o'rinda G'.G'ulom ijodining istiqlol yillarida o'rganilishi haqida ayrim umumlashmalarimizni ilgari suramiz.

Jahon adabiyotshunosligida XX asr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish, davrlashtirish, she'riy va nasriy asarlar shakli va mazmunida yuz bergan o'zgarishlar mohiyatini ko'rsatish singari ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda alohida ijodkor adabiy merosini qayta baholash, poetik o'ziga xosligini belgilashga bo'lgan intilish ortdi. Binobarin, XX asr adabiyotini o'rganish bo'yicha to'plangan ilmiy-nazariy fikr-qarash va amaliy tajribalar betakror iste'dod sohibi G'afur G'ulom ijodiyotining poetik o'ziga xosliklarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada qo'yilgan ilmiy muammo tadqiqiga muvofiq qiyosiy-tarixiy, biografik va tavsifiy metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti tarixidagi ko'plab ijodkorlar singari G'afur G'ulom shaxsi va ijodiga bo'lgan munosabat ham keskin o'zgardi. Bu esa adabiyotshunoslarga uning she'riyati poetikasi mohiyatini chuqurroq anglab yetishga keng imkon berdi. Tahlil va talqinlar endilikda ilgari tadqiqotlardan farqli tarzda G'afur G'ulom fenomenining tamomila yangi qirralarini kashf etishga yo'naltirildi. Shoir tug'ilganining 100 va 120 yillik sanalari keng nishonlandi. Bu davr oralig'ida amalga oshirilgan izlanishlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Maqolalar (A.Oripov, Q.Yo'ldoshev, A.Rasulov, N.Karimov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, S.Meli, R.Barakayev).
2. Esselar (O.Sharafiddinov, Said Ahmad, Olmos).

3. Risolalar (B.Nazarov, N.Karimov, H.Abdullayev).
4. Monografiyalar (B.Karimov, U.Hamdani, T.Matyoqubova).
5. Respublika va xalqaro anjuman materiallari (O‘zMU, SamDU, FarDU, Andijon DU. ToshDYuU; O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU: Turksoy (Xalqaro Turk madaniyati tashkiloti)).
6. Maqolalar to‘plami (Suvon Meli).
7. Dissertatsiyalar (G‘.Mo‘minov, M.Olimov, J.Jumaboyeva, Sh.Ahmedova, S.Babayeva, U.Hamdani, L.Ilhomjonov).
8. Nashr ishlari.

Akademik B.Nazarovning “G‘afur G‘ulom olami” [6] risolasi istiqbol davri g‘afurg‘ulomshunosligining katta yutuq‘idir. Mazkur kitobda ilmiy va gipotetik asoslarga tayanilgan bo‘lib, bu olimning estetik mushohada, taxayyul va tasavvur ufqi kengligini ko‘rsatadi. Zotan, olim ijodkor mikroolamiga kechinmadosh bo‘lish orqali uning badiiy olamini estetik o‘zlashtirishga intiladi. U milliy adabiyotshunosligimiz uchun bir qadar noan‘anaviy bo‘lgan yo‘ldan borib, shoir qalamiga mansub ayrim misralarni she‘rning umumiy matnidan uzib olib tahlilga tortadi. Aslida, bu hol nazariy jihatdan u qadar o‘zini oqlamaydi. Ammo B.Nazarov shoir yashagan zamon nihoyatda tahlikali, qaltis, ijod ahlidan o‘ta ehtiyotkor va mafkuraviy-siyosiy jihatdan “hushyor” bo‘lishni talab etuvchi davr ekanini nazarda tutadi. Adabiyotshunos G‘afur G‘ulom atayin tarzda “yashirinish uslubi”ni qo‘llagan. “Asl maqsadi”ni ayrim lavhalar, kichik she‘riy parchalar, alohida misralar, ko‘chim ma‘nolar ortiga yashirgan, – degan fikr va tasavvur bilan ish ko‘radi. Biografik metod imkoniyatlari doirasida G‘afur G‘ulomning psixologik portretini tiklashga, badiiy asarlari g‘oyaviy o‘ziga xosliklarini yuzaga chiqaruvchi omillarni shu bilan bog‘lab tahlil va tadqiq etishga intiladi. Munaqqid shu tarzda shoir ijodiy laboratoriyasiga kirib borishga harakat qilgan.

B.Nazarov G‘afur G‘ulomni “o‘zbekning pahlavon shoiri”, – deb olqishlaydi. Uning “Men yahudiy”, “Pol Robsonga”, “Sen yetim emassan”, “Vaqt”, “Sog‘inish”, “Sharaf qo‘lyozmasi” kabi asarlaridagi badiiy haqiqatlar XX asrga hamohangligi, davr sinovlaridan o‘ta olganligi o‘z isbotini topadi. Chunki tadqiqotchi shoir bezovta yuragining jahoniy iztiroblar bilan tepishi bilan konkret asar tomirining vobastalikda urishini tinglaydi. XX asr tarixiy voqealarining shoir yuragidan o‘tib, poetik misralarda aks sado berganini ishonarli va haqqoniy tahlil etadi. Risolada inson va xalq muammosi bilan bog‘liq she‘rlar qatiga yashiringan dardlarning poetik fikr ifodasidan izlanishi natijasida butun insoniyat yaxlit bir vujud, ammo har bir zarrasining tuzumi va to‘zimi mavjudligi haqidagi dadil fikrlarga diqqat qaratiladi. Ular qaysidir ma‘noda o‘sha davr hukmron mafkurasining raddiyasi ham bo‘lganligi shoir estetik idealiga bog‘lab talqin qilinadi. Zero, G‘afur G‘ulom tafakkurini mudom band etgan, dilida yashirin orzulardan biri millatni ozod ko‘rmoq edi. Bu esa poetik ifodada in‘ikos etmasligi mumkin emas. Illo,

har bir inson qalbiga yaqin idrok etiluvchi she'rlar aslida umuminsoniy ruhga yo'g'rilgandir.

XXI asr G'afur G'ulom ijodiy merosining qaysi jihatlariga ahamiyat berishi kerak? – degan masalani ko'ndalang qo'ygan adabiyotshunos shoir ijodining qimmatini va qadrini Vatanni, xalqni ulug'lashga qaratilgan asarlari bilan belgilash lozimligi haqida qat'iy hukm chiqardi. U: “G'afur G'ulom o'zini oqlashga, kimdandir himoya qilishga muhtoj shoir emas. G'afur G'ulom asarlari o'zini, o'z muallifini himoya qilishga qodir va bunday asarlar uning ijodida bisyordir” [6; 5], – deb yozadi.

Demak, olim G'afur G'ulom hayoti va ijod yo'lini tadqiq etgan H.Yoqubov, S.Mamajonov, N.Shukurov. A.Akbarov singari ustoz adabiyotshunoslarning shoir mahorati xususidagi nozik kuzatishlarini qadrlagan holda yondoshgan. G'afur G'ulom ijodiy merosiga bo'lgan munosabat masalasida o'zbek adabiyotshunosligi tarixida kuzatilgan goh sho'roviy jihatlariga urg'u berib sho'irni olqishlash, gohida esa G'afur G'ulom asarlarida uchrovchi zamonasozlikni davr va zamonga bog'lash orqali go'yo uni oqlashga bo'lgan intilishdan iborat tendensiozlikka barham berish yo'lidan bordi. “Adabiyotshunoslikning bundan buyongi vazifasi, – deb ta'kidlaydi olim. – G'afur G'ulom merosidagi o'ziga xosliklarni, bu ulug' adibni elga, yurtga, uning kanorasidan olislarga mashhur etgan belgilarni mafkura va siyosatga bog'lamay, ulardagi badiiylik va mahoratni o'rganishdan iboratdir” [6; 5]. Ko'rinadiki, olimning diqqat-e'tiborida badiiylik va mahorat muammosi turadi.

Masalalar mohiyatiga tarixan to'g'ri yondashgan olim G'afur G'ulomning asarlari xususida so'z ketganda, ularni yaratilgan davri xususiyatlaridan kelib chiqib baholagan. Shoirning ayrim she'r va dostonlarida badiiylikdan ko'ra bayonchilik, ehtirosdan ko'ra e'tirof ustunlik qilishi haqli tarzda tanqid qilgan. Baxtiyor Nazarov XX asrning 20-30-yillarida yashagan real insonning dunyoqarashi, yashash tarzidagi o'ziga xosliklarni badiiy aks ettirgan “Ko'kan” singari dostonlarni “badiiy tarix” sifatida baholaydiki, uning biryoqlama talqinlarga tayanilgan asarlarni –da yoppasiga inkor qilish emas, balki ular mohiyatidagi fazilatlarini inkishof etishni qo'llab-quvvatlaydi. “G'afur G'ulom – she'r bilan yashagan, she'r bilan nafas olgan” [6; 1715]. Demak, G'afur G'ulomning katta miqyoslarga chiquvchi gumanizmi dastlabki kuchni shoir umrining ajralmas va muhim qismi bo'lgan oilaviy muhitdan, mohiyatdan olgan.

Umuman, risolada G'afur G'ulom she'riyati va nasri, adabiyotshunos va tarixchi sifatidagi ilmiy-nazariy qarashlarigina emas, balki ijodiy fenomeni cho'ng ixlos, havas va hayrat bilan, ijodkor mikroolamiga kechinmadoshlik asosida o'rganilgan. Akademik olim G'afur G'ulom ijodiy merosini umumbashariy mezonlar asosida ilmiy-nazariy tahlil va tadqiq etish orqali umuman, XX asr o'zbek adabiyoti poetikasining ayrim noayon qirralarini ham yoritishni mazarda turgan. Tadqiqotning yetakchi yo'nalishi va mohiyatini istiqloq orzu-armonlari muhrlangan shoir dil izhorlarini matn tagmazmunidan o'qish va uqish, g'afurona yashirin uslub asrorini ochish tashkil etadi. Olimning tahayyulga

to'yingan gipotetik mulohaza va fikr-xulosalari kitobxonni doimo mushohadaga chorlab turadi. Adabiyotshunos A.Rasulov inson va borliqni so'z yordamida aks ettirish haqida fikr yuritib, E.Vohidovning "Yerni go'zal qilgani sayin, go'zal bo'lar o'zi ham inson", baytini keltiradi. Olim ushbu o'rinda Bu fikr ko'pchilikka yangilik emasligini G'afur G'ulom undan chorak asr oldin "ungan ish" go'zalligini mafkura bilan bog'liqlikda aks ettirganini keltiradi. G'afur G'ulomdan oldinroq Cho'lpon ko'nglidagi go'zalni oy, quyosh, yulduz, tong yeliga qiyoslab, bu mavzuda o'ziga xos badiiy namunalar yaratganiga e'tiborni qaratadi [7; 112].

G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi arafasida taniqli o'zbek shoiri A.Oripov "O'zbekning o'z shoiri" nomli maqolasini e'lon qildi. A.Oripov shoirmi o'z davrining farzandi sifatida qalam tebratsa-da salaflari singari xalq oldidagi burchini hech qachon unutmaganini ta'kidlaydi. "G'afur G'ulom deyarli har bir she'rida o'zbek xalqining manfaatli obro'ini o'rtaga qo'yib gapirar edi" [8; 242], – deb yozgan shoir uning yeng yetuk she'rlaridan namunalar keltiradi. Shoirning "Sharaf qo'lyozmasi", "Sen yetim emassan" kabi badiiy yetuk she'rlarini tahlil qiladi.

A.Oripov G'afur G'ulomning nosir va adabiyotshunos sifatidagi faoliyatiga ham muayyan munosabatlar bildirib o'tgan. Shoir she'riyatining yuksak badiiyatini Sharq adabiyotining chuqur bilimdonligi bilan bog'laydi. Sharqning yetuk mutafakkirlari ijodi bo'yicha tadqiqotlari bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga egaligiga urg'u beradi. G'afur G'ulomning salaflariga munosabati haqida: "Sa'diy va Xofiz, Navoiy va Bedil devonlarini bir umr qo'ldan qo'ymagan, o'tmish daholarining minglab baytlarini yod bilgan shoirning o'zi ham ularga hamohang bo'ladigan o'lmas satrlar yaratib ketdi" [8; 145], – deydi.

Ko'rinadiki, A.Oripov ustoz G'afur G'ulom ijodini o'z davridan ajratmagan holda yuksak baholagan. Shoir asarlarining yashovchanligining asosiy xususiyati sifatida o'zbek hayotini, uning milliy o'ziga xos qirralarini badiiy mahorat bilan aks ettira olganida, she'rlarining Sharq adabiyotiga hamohangligida deb bilgan.

Cho'lponshunos N.Yo'ldoshevning "Cho'lpon va G'afur G'ulom" nomli maqolasida ikkala shoir o'rtasidagi ijodiy munosabatlar borasida qimmatli ma'lumotlar ilgari surilgan. Unda olim G'.G'ulom she'riyatidagi Cho'lponga mushtarak jihatlarni bir qator misollar asosida yoritadi. Shoirning "Surnay" she'ridagi obrazlar tizimini kuzatar ekan, adabiyotshunos uni o'sha davrdagi adabiy an'analar bilan bog'lab tadqiq etadi: "XX asr boshlari o'zbek she'riyatida haq-huquqlari toptalgan insonni ramziy timsollarda, masalan, bulbul, gul obrazlarida berish an'ana tusini olgan" [2; 69]. Olim fikrlari tasdig'i uchun Botu, Elbek, Cho'lpon she'rlaridan namunalar tahlilga tortadi.

Adabiyotshunos N.Karimovning "Istiqlolni uyg'otgan shoir" risolasidagi ma'lumotlarga tayanib, Cho'lpon ustoz sifatida yosh shoirlarni atrofiga birlashtirib, ijodiy muloqotlar, mushoiralar uyushtirib turgani hatto, bir safar G'afur G'ulomning uyiga ham borganini aytadi [3; 32].

Ushbu o'rinda G'afur G'ulomning jadidlarga munosabati haqida ham muayyan mulohazalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Shoir jadid adabiyotining yetuk namoyandalari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponlar ijodini chuqur bilgan va ma'lum muddat ular bilan ijodiy munosabatda bo'lgan.

G'afur G'ulom Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan so'zlagan "Buyuk ustoz" nomli ma'ruzasida Abdurauf Fitratni navoiyshunoslik ilmining yetuk namoyandasi sifatida e'tirof etadi [13; 331].

Ayni paytda bu ulug' ijodkorlar ham G'afur G'ulom iste'dodini yaxshi bilishgan va qadrlashgan. Shuning uchun ham Abdurauf Fitrat "Aruz haqida" [1; 275] nomli risolasida rajaz bahri haqida so'z yuritganida fikri tasdig'i uchun G'afur G'ulom g'azallaridan namunalar keltirib o'tadi.

Shuningdek, Cho'lponning aruzda yozilgan "Daryo bo'yi" [10; 540] deb nomlangan she'ri G'.G'ulomga bag'ishlangan. Cho'lponning G'afur G'ulom bilan qilgan mushoirasi ham mavjud [11; 159]. Ko'rinadiki, G'afur G'ulom jadid shoirlari ijodini puxta bilgan, ma'lum muddat ular bilan hamfikir bo'lgan.

U bir qator she'rlarida jadidlar singari erk va ozodlik g'oyalarini kuylagan. Shoirning ko'pgina she'rlarida jahon xalqlarining erk va ozodligi g'oyalari kuylangan. "Pol Robsonga", "Ona qizim Jamilaga", "Tinchlik nashidasi", "Livan omon bo'ladi", "Sharq tinchlik istaydi" va boshqa she'rlarida bu yaqqol namoyon bo'ladi.

Demak, G'afur G'ulomning jadid adabiyotiga munosabatini kuzatish g'afurg'ulomshunoslik ilmidagi ayrim jihatlarni yanada to'ldirishga xizmat qilishi, shubhasizdir.

Xulosa. Istiqlol yillari g'afurg'ulomshunosligining yutuqlari куйидагилардан уборам: Birinchidan, G'afur G'ulom shaxsiyati va ijodiy merosi:

XX asr milliy madaniyati va o'zbek adabiyoti tarixining serqirra iste'dod sohibi, donishmand shoiri;

mohir nosir, zakiy dramaturg va hozirjavob publitsist;

yetuk tarjimon va nuqtadon adabiyotshunos olim ;

teran milliy tuyg'ular egasi – xalq va Vatan taqdiriga bevosita daxldor qalam sohibi sifatida o'rganila boshlandi.

Ikkinchidan, G'afur G'ulom ko'plab zamondoshlari qatori doimo adabiy-mafkuraviy tazyiq va cheklashlarni chuqur his qilgan holda yashab, ijod qilgani, badiiy mukammal, falsafiy mazmundor she'riy, nasriy va ilmiy-adabiy meros qoldirgani xolis va obyektiv baholana boshladi. Shoirmi:

oddiy inson va ulug'vor shaxs sifatida idrok etish;

yumorning G'afur G'ulom asarlari poetikasida komiklik tug'diruvchi muhim vositalardan biri darajasiga ko'tarilgani masalasini ijodkor shaxsiyati va ijtimoiy-estetik ideali bilan chambarchas bog'liqlikda tushunish;

tafakkur sarhadlari keng, xayol parvozlari uchqur, tengsiz qalam sohibi sifatida talqin etish;

fikriy qarashlarining tarixiy-adabiy jarayon tizimidagi o'ziga xos rolini ochib berish imkoni yuzaga keldi.

Uchinchidan, G'afur G'ulom badiiy olamini estetik o'zlashtirishda:

ijodkor mikroolamiga kechinmadoshlik paydo bo'ldi;

biografik metod imkoniyatlari doirasida uning psixologik portretini tiklash, badiiy asarlari g'oyaviy o'ziga xosliklarini yuzaga chiqaruvchi omillarni shu bilan bog'lab tahlil va tadqiq etishga intilish yuzaga keldi.

G'afur G'ulom ijodiy merosidagi tagma'noli fikrlarni ilg'ash, asarlari bag'rida yashirin qatlamlarni yuzaga chiqarishga intilish kuchaydi.

Istiqloq davri g'afurg'ulomshunosligida quyidagi nuqsonlar ko'zga tashlandi:

G'afur G'ulom shaxsiyati va e'tiqodini u yashagan davrdan, ijtimoiy-estetik idealidan butkul ajratib olib, shariat va ulumi dinga chambarchas bog'lashga intilish;

gipotetik talqin asnosida shoirning ayrim misralarini she'ning umumiy matnidan uzib olib tahlilga tortishga urinish;

G'afur G'ulom hayotining ko'pchilikka noma'lum bo'lgan ayrim sahifalari haqida "xalq orasida mavjud og'zaki rivoyatlar"ni naql qilish.

Istiqloq davri dastlabki o'n yilligida amalga oshirilgan kuzatishlarda obyektga bo'lgan ortiqcha mehr-ehtimom tufaylidan bo'lsa kerak, muayyan tendensiozliklar ham ko'zga tashlandi. Keyingi yillarda G'afur G'ulom shaxsiyati va ijodini yangicha tamoyillar asosida tadqiq etishda sezilarli muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Ilgari yo'l qo'yilgan nuqsonlardan qutula borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Ж.5. – Т.: Маънавият, 2010.
2. Йўлдошев Н. Чўлпон ва Ғафур / Ғафур Ғулом ва давр. «Ғафур Ғуломнинг янги ўзбек адабиёти тараққиётидаги ўрни» мавзусидаги илмий конференция материаллари. – Т.: Университет, 2003.
3. Каримов Н. Истиклолни уйғотган шоир. – Т.: Маънавият, 2000.
4. Матёкубова Т. Ғафур Ғулом бадийати. – Т.: Фан ва технология, 2006
5. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015.pp. 40-43
6. Назаров Б. Ғафур Ғулом олами. – Т.: Фан, 2004.
7. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик / Бадийлик-безавол янгилик. Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Т.: Шарқ НМАК, 2007. – Б.112-113.
8. Орипов А. Ўзбекининг ўз шоири / Адолат кўзгуси: Шеърлар, мақолалар, суҳбатлар, таржималар. – Т.: Адолат, 2005.
9. Саримсоқов Б. Лирикада бадий тафсил // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, № 5-6.
10. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991.
11. Чўлпон билан Ғафур Ғулом мушоираси // Жаҳон адабиёти. . 1997, № 1. – Б.159
12. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т., 2004.
13. Ғафур Ғулом. Мукамал асарлар тўплами. 12 томлик. Т.11. – Т.: Фан, 1989
14. Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. Pp. 120-122

15. Matyokubova T. The Expression Of The Poet's Feelings In Gafur Gulam's Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. Pp. 62-64
16. Matyokubova T. G'afur G 'ulom she'riyatining poetik jozibasi (Shoirning "Kuzatish" va "Sog'inish" she'rlari tahlili misolida) // Uzbekistan: yozuk i kultura . 2024. № 2. 88-98-b.
17. Yakubov I. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. Pp. 123-126
18. Yoqubov I. Erkin A'zamning "Zabarjad" kinoqissasida qahramon botinidagi evrilishlar tasviri // Uzbekistan: yozuk i kultura . 2024. № 2. 66-77-b.
19. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, 2022, № 3. 42-54-b.
20. Yokubova S.I. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: Til va madaniyat. – Toshkent, 2023, № 3. 79-90-b.

